

XII. DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning 1 aprel holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1 450,5 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 7,1 ming kishiga yoki 100,5 foizga ko'paydi. Shundan, 680,7 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 769,8 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.



Jizzax viloyatining hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2022 yilning 1 aprel holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Jizzax viloyati	1 450,5	680,7	769,8	100,5	100,5	100,4	100,0	100,0	100,0

shahar:


Jizzax	188,3	188,3	-	100,7	100,7	-	13,0	27,7	-
--------	-------	-------	---	-------	-------	---	------	------	---

tumanlar:

Arnasoy	47,4	16,3	31,1	100,2	100,0	100,3	3,3	2,4	4,0
Baxmal	163,9	44,5	119,4	100,4	100,7	100,3	11,3	6,5	15,5
G'allaorol	179,9	62,9	117,0	100,3	100,3	100,5	12,4	9,2	15,2
Sharof Rashidov	231,8	92,3	139,5	100,6	100,5	100,5	15,9	13,5	18,1
Do'stlik	68,0	28,7	39,3	100,3	100,3	100,5	4,7	4,2	5,1
Zomin	172,2	82,0	90,2	100,5	100,4	100,4	11,8	12,0	11,7
Zarbdor	90,9	50,4	40,5	100,6	100,5	100,5	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	51,8	23,6	28,2	100,4	100,4	100,3	3,6	3,5	3,7
Mirzacho'l	53,7	30,0	23,7	100,3	100,3	100,4	3,7	4,4	3,1
Paxtakor	77,9	37,8	40,1	100,5	100,5	100,5	5,4	5,6	5,2
Forish	95,6	17,7	77,9	100,0	100,0	100,3	6,6	2,6	10,1
Yangiobod	29,1	6,2	22,9	100,0	100,0	100,4	2,0	1,0	3,0



Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da (2022 yil 1 aprel xolatiga)




Yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
Tug'ilganlar	8 277	8 959	23,7	25,1
Vafot etganlar	1 437	1 481	4,1	4,2
<i>shu jumladan:</i>				
bir yoshgacha bolalar	112	211	12,4	20,5
Nikohlar, mingta	2 376	2 109	6,8	5,9
Ajralishlar, mingta	338	418	1,0	1,2

Tug'ilish. 2022 yilning yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 8 959 kishini tashkil etdi va 2021 yilning shu davriga (8 277 kishi) nisbatan 682 kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 25,1 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Jizzax shaharda (19,6 promilledan 34,6 promillegacha), Zomin (28,6 promilledan 27,2 promillegacha), Paxtakor (23,3 promilledan 26,1 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
2022 yilning yanvar-mart holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)**




O'lim. 2022 yilning yanvar-mart oylarida o'lganlar soni 1 481 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (1 437 kishi) nisbatan 44 kishiga ko'paydi, mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil qildi (2021 yil yanvar-martda 4,1 promille bo'lgan).


O'lim koeffitsiyentining sezilarli o'sishi Baxmal (4,6 dan 5,1 promillegacha), G'allaorol (4,4 dan 6,0 promillegacha), Zomin (3,9 dan 6,3 promillegacha) hissasiga to'g'ri keladi.

O'lim darajasining eng past ko'rsatkichi Zafarobod (2,5 promille), Jizzax shaharda (2,6 promille) Do'stlik (2,7 promille)tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti
2022 yilning yanvar-mart holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)**



O‘lganlar umumiy sonidan 50,9 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,8 foizi – o‘sma kasalliklaridan, 8,5 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 5,8 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 6,1 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 2,1 foizi – infekzion va parazitar kasalliklaridan, 16,8 foizi – boshqa kasaliklardan vafot etgan.




Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilning yanvar-mart oylarida 211 nafar bir yoshgacha bolalar o‘limi qayd etilgan. Go‘daklar o‘limi koeffitsiyenti 20,5 promilleni (2021 yil yanvar-martda 12,4 promille bo‘lgan) tashkil qildi.

Bir yoshgacha o‘lgan bolalarning umumiy sonidan 9,0 foizi perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 73,9 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 4,3 foizi – tug‘ma anomaliyalardan, 0,9 foizi – infekzion va parazit kasalliklaridan, 5,7 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan va 6,2 foizi – boshqa kasaliklardan vafot etgan.

Nikohlar va ajralishlar. 2022 yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 2 109 ta nikohlar va 418 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,9 ni (2021 yilning yanvar-martda 6,8 bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,2 ni (2021 yilning yanvar-martida 1,0 bo‘lgan) tashkil etgan.

2022 yilning yanvar-mart oyida viloyat bo‘yicha tuzilgan nikoh koeffitsiyenti



Tuzilgan nikohlar soni 2021 yilning mos davriga nisbatan ayrim hududlarda sezilarli ko‘payish kuzatilgan. Bunda eng yuqori ko‘payish sur’ati Baxmal (124,5 %) tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



**Hududlarda yanvar-mart oylarida tuzilgan nikohlar
va nikohdan ajralishlar soni**

(kishida)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>

Jizzax viloyati	2 376	2 109	338	418
------------------------	--------------	--------------	------------	------------


shahar:

Jizzax	323	318	51	67
---------------	-----	-----	----	----

tumanlar:

Arnasoy	66	48	7	12
Baxmal	208	259	24	40
G‘allaorol	257	256	40	48
Sharof Rashidov	390	312	51	69
Do‘slik	107	105	8	13
Zomin	355	303	39	49
Zarbdor	202	154	30	17
Zafarobod	83	72	17	20
Mirzacho‘l	73	70	8	19
Paxtakor	157	111	29	32
Forish	120	79	22	24
Yangiobod	35	22	12	8

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti
(2022 yil yanvar-mart)**



Ajrimlar sonini 2021 yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, yuqori o'sish sur'ati Baxmal (166,7 %), Sharof Rashidov (135,3 %) Zomin (125,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Ajrimlar sonining eng past ko'rsatkich Yangiobod (66,7 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o‘sishi
soni va koeffitsiyenti**

(*kishi*)

	<i>Kishi soni</i>		<i>1 000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>

Jizzax viloyati	6 840	7 478	19,6	20,9
------------------------	--------------	--------------	-------------	-------------

shahar:

Jizzax	675	1 478	15,1	32,0
---------------	------------	--------------	-------------	-------------

tumanlar:

Arnasoy	168	192	14,6	16,4
Baxmal	895	811	22,7	20,1
G‘allaorol	912	871	21,1	19,7
Sharof Rashidov	1 218	1 081	21,8	18,9
Do‘slik	284	304	17,3	18,2
Zomin	1 016	884	24,6	20,9
Zarbdor	450	461	20,6	20,6
Zafarobod	232	240	18,6	18,8
Mirzacho‘l	170	221	13,1	16,7
Paxtakor	360	240	19,2	22,1
Forish	370	399	16,0	16,9
Yangiobod	90	112	12,8	15,6

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1 912 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 2 297 kishi tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 385 kishi tashkil etgan, 2021 yilning mos davrida minus 662 kishi bo'lgan.



Yanvar-mart oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosи	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
Jizzax viloyati	3 047	1 912	3 709	2 297	-662	-385
<i>shahar:</i>						
Jizzax	656	396	612	449	44	-53
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	120	45	176	98	-56	-53
Baxmal	139	92	388	207	-249	-115
G'allaorol	132	102	343	171	-211	-69
Sharof Rashidov	762	493	474	337	288	156
Do'stlik	173	74	240	122	-67	-48
Zomin	173	140	300	189	-127	-49
Zarbdor	223	134	218	137	5	-3
Zafarobod	152	77	178	64	-26	13
Mirzacho'l	185	113	172	115	13	-2
Paxtakor	215	161	281	197	-66	-36
Forish	76	54	257	146	-181	-92
Yangiobod	41	31	70	65	-29	-34

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 115 kishi), G'allaorol (minus 69 kishi), Zomin (minus 49 kishi) va Forish (minus 92 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosи Sharof Rashidov tumani (156 kishi) va Zafarobod (13 kishi) kuzatildi.